

“SABOTUL UL-OJIZIN” ASARIDA TASAVVUFIIY QARASHLAR TAHLILI

Ahmadjonova Dilobarxon Valixon qizi,

FarDU 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada So‘fi Olloyorning mumtoz ma’naviy merosining durdonalaridan biri — “Sabotul ojizin” asarida aks etgan tasavvufiy qarashlar har tomonlama tahlil qilinadi. Kitobning qo‘lyozma uslubida yozilganligi, undagi pandu-nasihatlar, ma’rifatga chaqiruvchi o‘g‘itlar hamda komil inson konsepsiyasining yoritilishi asosiy tahlil obyekti sifatida olinadi. Asarda so‘fiylikning mohiyati — nafsni poklash, sabrning ruhiy tarbiya vositasi sifatida talqini, tavozu’, ixlos, qanoat kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlar chuqur badiiy ifoda topgani ilmiy yondashuv asosida yoritiladi. Shuningdek, “Sabotul ojizin”dagi hikoyatlar, ramziy tasvirlar va didaktik bayonlar orqali muallifning tasavvufiy dunyoqarashi, insonni ruhiy kamolot sari yetaklashga qaratilgan qarashlari ochib beriladi. Tadqiqot davomida asarning axloqiy-ma’rifiy ahamiyati, bugungi ma’naviy hayotimiz uchun dolzarbligi ham ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘z: So‘fi Olloyor , tasavvuf , “ Sabotul ojizin”, zohid, toat – ibodat , ma’naviy qadriyat, ijtimoiy tarbiya

Kirish : So‘fi Olloyor (XVII asr oxiri – XVIII asr boshi) o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lib, uning eng mashhur asari “Sabotul ojizin” – diniy- axloqiy, falsafiy-didaktik yo‘sindagi asardir. Ushbu asar orqali muallif xalqning ma’naviy dunyoqarashini, tasavvufiy hayot tarzini, axloqiy me‘yor va qadriyatlarini yoritadi. Asar nafaqat adabiy manba, balki ijtimoiy-ma’naviy tarbiya vositasi sifatida ham dolzarbligini saqlab kelmoqda. “So‘fi Olloyor” o‘z asarida jamiyatdagi ijtimoiy tenglik, adolat, sabr-toqat, xayrixohlik, mehr-oqibat kabi qadriyatlarni targ‘ib etadi. Jumladan, kambag‘allik, g‘urbat, yolg‘izlik kabi hayotiy sinovlarga sabr bilan qarash, imon va ixlos bilan yashash zarurligi haqida fikr yuritiladi. “Sabr ila topilar davlat...” –

degan satrlar orqali muallif sabrni muqaddasfazilat sifatida talqin etadi. Shuningdek, halollik, mehnatga sadoqat, yolgʻon va riyokorlikdan yiroqlik ham muhim ijtimoiy qadriyat sifatida koʻrsatiladi. Muallif oʻz davridagi ijtimoiy nosogʻlom holatlarni (zalolat, jaholat, manmanlik, hirs) tanqid qiladi. Asarda tasavvufga oid tushunchalar orqali insonning ichki pokligi, qalbnitarbiyalash, nafs bilan kurashish kabi maʼnaviy qadriyatlar ilgari suriladi. “Sabotul ojizin” tasavvufiy hikmatlar bilan boyitilgan boʻlib, ular orqali Olloyor qalb tarbiyasining eng yuksak darajasi – Allohga muhabbat va tavakkul ekanini uqtiradi: “Jahon gʻamidan ozod boʻlmoq Haqqa yaqin boʻlmoqdir”.

Shuningdek, kamtarlik, tavozeʻ, sabr va shukr kabi tasavvufiy qadriyatlar orqali asar maʼnaviy kamolot sari chorlaydi. Fanolik – yaʼni dunyoviylikdan voz kechib, Allohga yoʻnalish gʻoyasi ham asosiy oʻrinda turadi. Olloyor bu holatni qalbdagi yuksak maʼnaviy bosqich deb talqin qiladi. Yana “Soʻfi Olloyor” asarda tasavvufda keng ishlatiladigan ramziy obrazlar orqali falsafiy gʻoyalarni chuqur ifodalaydi: a) Ishq – bu ilohiy muhabbat, yaʼni Allohga yetishish yoʻli. b) Zohid – tashqi koʻrinishda dinga rioya qiluvchi, ammo ichki dunyosiboʻsh inson obrazidir. c) Arif – maʼrifat egasi, yaʼni Allohni qalban tanigan inson.

Ushbu ramzlar orqali muallif insoniy kamolot va ruhiy tozalik yoʻlini koʻrsatadi. Soʻfi Olloyorning “Sabotul ojizin” asari – bu nafaqat diniy sheʼriyat namunasi, balki chuqur falsafiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Asar tasavvuf falsafasining markaziy gʻoyalarini, inson va Yaratuvchi oʻrtasidagi munosabatni, sabr, tavba, fanolik va ruhiy yuksalish masalalarini keng yoritadi. Hikoyatlarning har biri orqali Qurʼondagi biror jumla oydinlashayotgandek boʻladi.

Xususan, asarning “Xavf-u rajo xususida” boʻlimidan keyin kelgan paygʻambarimiz haqidagi hikoyat har bir musulmon bandasini mushohada qilishga majbur qiladi. Allohning quli sifatida Unga toat-ibodat qilish, tavakkul qilish buyurilganidir. Biror savob amali bilan gʻururlanmasligi yoki gunohi sabab Alloh

marhamatidan noumid bo'lasligi lozim. Zero, Alloh Bilguvchi va Ko'rguvchi. Hikoyatda payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning qo'rquvi ko'rsatilgan bo'lib, "rahmatan dil olamin" deya jannatlarda joyi bo'lsa-da, Allohga qo'rquvidan ibodat paytida hushidan ketadi. Bundan ayon bo'ladiki, ming savob qilgan ham, ibodati mukammal bo'lganlar ham bir aybi bilan do'zaxga tushib qolishdan, Allohdan qo'rqishi lozim. Robiya Adaviya ayol bo'lsa-da, eranlar – tariqat ulug'lari unga "Tojur rijol" ya'ni "Er kishilar toji" degan nomni berdilar. Ayol bo'lishiga qaramasdan, turli-tuman azoblar ichida yayov yo'l bosib, xasta tan-u jonlarini sudrab, yetti yilda Ka'ba ziyoratiga yetishdi. Uningdek himmatli ayolning kasb-kamoloti, yuksak did va holoti hisobdan tashqaridir¹. Robiya al-Adaviya Allohga nimadandir qo'rqib, yoki biror narsa ilinjida ibodat qilmagan, balki mahbub sifatida, ya'ni qalb bilan muhabbat izhor qildi. Alloh ham o'z o'rnida insonni ayricha bir muhabbat bilan mukarram qilib yaratgan. Tasavvufning mohiyati ikki tomonlama muhabbatni talqin qilish bo'lib, tasavvuf axloqshunosligida muhabbat his-tuyg'ulik maqomidan tushuncha darajasiga ko'tarilgan. Allohni sevish, Uning zoti sifatini tanish va bilish ko'ngilni nafs-u hirs g'uboridan tozalab, botiniy musaffo bir holatda iloh vasliga yetishish va bundan lazzatlanish g'oyasini keng targ'ib qiladilar. Inson ruhi ilohiydir va asosiy maqsad ruhiy ma'naviy yuksalishdir

Xulosa: So'fi Olloyorning "Sabotul ojizin" asari diniy, axloqiy va adabiy jihatdan yuksak baholanishi kerak bo'lgan bebaho manba hisoblanadi. U o'z davrining ijtimoiy-ma'naviy muhitini aks ettirgan, bugungi ilm-fan sohalariga boy material bergan asardir. Ushbu asar asosida davr tilshunosligiga oid boy ma'lumotlarga ega bo'lishdan tashqari, yosh avlodga axloqiy-ma'naviy tarbiya berish, diniy savodxonlikni oshirish, adabiy merosimizni o'rganishda muhim manba sifatida keng foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. So'fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. –Toshkent: "Mehnat", 1991. –115 b.

2. Rashid Zohid. “Sabot ul-ojizin” sharhi. Ravoyihur rayhon. – Toshkent: “Matbaachi”, 2022
3. So’fi Olloyor. Risolai aziza “Sabot ul ojizin sharhi” (Tuzuvchi: B. Hasan) Toshkent: Xalq merosi nashr, 2000
4. G’afurov A. “So’fi Olloyor va tasavvuf she’riyati.” – Toshkent, 2004.